



Dastlabki ma'lumotlarga ko'ra, 2024-yilning 1-yanvar holatiga Toshkent shahri doimiy aholisi soni 3 040,8 ming kishini tashkil etib, o'tkan yil boshiga nisbatan 84,4 ming kishiga yoki 102,9 % ga o'sdi.

**Toshkent shahri tumanlari bo'yicha doimiy aholi soni to'g'risida ma'lumot  
(2024- yilning 1-yavar holatiga)**

	Doimiy aholi soni, ming kishi			Doimiy aholi sonining o'sish sur'ati, %		
	jami	shu jumladan:		jami	shu jumladan:	
		shahar	qishloq		shahar	qishloq
<b>Toshkent shahri</b>	<b>3 040,8</b>	<b>3 040,8</b>	-	<b>102,9</b>	<b>102,9</b>	-
<i>tumanlar:</i>						
Uchtepa	299,4	299,4	-	102,0	102,0	-
Bektemir	60,5	60,5	-	108,4	108,4	-
Yunusobod	376,1	376,1	-	102,5	102,5	-
Mirzo Ulug'bek	331,2	331,2	-	102,5	102,5	-
Mirobod	152,2	152,2	-	101,8	101,8	-
Shayxontohur	365,4	365,4	-	101,3	101,3	-
Olmazor	404,4	404,4	-	102,4	102,4	-
Sergeli	168,2	168,2	-	103,6	103,6	-
Yakkasaroy	133,5	133,5	-	105,1	105,1	-
Yashnobod	300,1	300,1	-	103,7	103,7	-
Yangihayot	174,7	174,7		108,5	108,5	-
Chilonzor	275,1	275,1	-	101,2	101,2	-



## DEMOGRAFIK HOLAT



**Toshkent shahri tumanlari bo'yicha doimiy aholi sonining jinslari to'g'risida ma'lumot**


*(2024-yilning 1-yanvar holatiga)*

	Doimiy aholi soni, ming kishi		
	jami	shu jumladan:	
		Erkak	Ayol
<b>Toshkent shahri</b>	<b>3040786</b>	<b>1 492 044</b>	<b>1 548 742</b>
<i>tumanlar:</i>			
Uchtepa	299 354	148 750	150 604
Bektemir	60 479	29 309	31 170
Yunusobod	376 112	182 571	193 541
Mirzo Ulug'bek	331 183	164 878	166 305
Mirobod	152 214	74 032	78 182
Shayxontohur	365 386	178 788	186 598
Olmazor	404 447	196 623	207 824
Sergeli	168 241	83 257	84 984
Yakkasaroy	133 453	65 597	67 856
Yashnobod	300 113	147 066	153 047
Yangihayot	174 697	84 872	89 825
Chilonzor	275 107	136 301	138 806



Toshkent shahri tumanlari kesimida 2024-yil 1-yanvar holatiga eng ko‘p aholi soni Olmazor tumanida 404,4 ming kishini (Toshkent shahri aholi sonidagi ulushi 13,3%), kishini Yunusobod tumanida 376,1 ming kishini (12,4 %) va Shayxontohur tumanida 365,4 ming kishini (12,0 %) ni tashkil etdi.

**Tumanlar kesimida doimiy aholi sonining taqsimlanishi  
(2024-yil 1-yanvar holatiga Toshkent shahri jami aholisiga nisbatan, foizda)**



**Toshkent shahrida aholining tabiiy harakati  
ko‘rsatkichlari va koeffitsiyentlari  
(yanvar-dekabr)**


Ko‘rsatkichlar	Kishi		1000 aholiga nisbatan	
	2022-yil	2023-yil	2022-yil	2023-yil
<b>Tug‘ilganlar</b>	<b>74036</b>	<b>75017</b>	<b>25,4</b>	<b>25,0</b>
<b>O‘lganlar</b>	<b>16471</b>	<b>15616</b>	<b>5,7</b>	<b>5,2</b>
<b>shu jumladan: 1 yoshgacha o‘lgan bolalar</b>	-	-	-	-
<b>Nikoh</b>	<b>22503</b>	<b>22352</b>	<b>7,7</b>	<b>7,5</b>
<b>Ajrim</b>	<b>5934</b>	<b>6169</b>	<b>2,0</b>	<b>2,1</b>

**Tug‘ilish.** 2023-yil yanvar-dekabr oylarida 75017 ta bola tug‘ilganligi qayd etilgan bo‘lib, 2022-yilning mos davriga (74036 ta bola) nisbatan 981 ta bolaga ko‘paydi, tug‘ilish koeffitsiyenti 25,0 promilleni tashkil etdi.



## Aholining tug‘ilish koeffitsiyenti

( 2023-yil yanvar-dekabr oylarida, 1000 aholiga, promille)



Tug‘ilish koeffitsiyentining sezilarli darajada o‘sishi Yakkasaroy (24,1 promilledan 52,7 promillega), Bektemir (30,8 promilledan 53,4 promillega), Yangihayot (24,0 promilledan 34,2 promillega), Yunusobod (25,1 promilledan 26,4 promillega) tumanlarida qayd etildi.

Aksincha tug‘ilish koeffitsiyentining kamayishi Sergeli (35,0 promilledan 14,0 promillega), Yashnobod (23,2 promilledan 18,4 promillega) tumanlarda kuzatildi.

**O’lim.** 2023-yil yanvar-dekabr oylarida o‘lganlar soni 15,6 ming kishini tashkil etib, 2022- yil yanvar-dekabr oylariga nisbatan ( 0,8 ming kishi) ga kamaydi, mos ravishda o’lim koeffitsiyenti 5,2 promilleni tashkil etdi (2022-yil yanvar-dekabr 5,7 promille bo‘lgan).


O’lim koeffitsiyenti yuqori darajasi 2022-yilga nisbatan Chilonzor (7,9 promilledan 9,2 promillega) tumanida kuzatildi.

O’lim koeffitsiyentining past darajasi Yakkasaroy (3,1 promille), Yangihayot ( 3,0 promille) va Shayxontohur (3,8 promille) tumanlarida qayd etildi.

Ro‘yxatga olingan jami o‘lganlarning 58,6 % qon aylanish tizimi kasalliklaridan, 13,9 % o‘simalardan, 5,2 % ovqat hazm qilish a’zolari kasalliklaridan, 6,1 % nafas olish a’zolari kasalliklaridan, 4,9 % baxtsiz hodisa, zaharlanish va jarohatlanishlardan, 2,7 % yuqumli va parazitar kasalliklardan hamda 8,9 % boshqa kasalliklardan vafot etgan.




**2023- yilning yanvar-dekabr oylarida o‘lganlarning asosiy o‘lim sababi  
bo‘yicha taqsimlanishi (jami vafot etganlarga nisbatan foizda)**



**Nikoh va ajrimlar.** 2023-yilning yanvar-dekabr oylarida FHDYO organlari tomonidan 22,3 mingta nikoh va 6,2 mingta nikohdan ajralishlar qayd etilgan bo‘lib, 1000 aholiga nisbatan nikoh tuzish koeffitsiyenti 7,5 promilleni (2022-yil yanvar-dekabr oylarida 7,7 promille bo‘lgan) va nikohdan ajralish koeffitsiyenti 2,1 promilleni (2022- yil yanvar- dekabr oylarida 2,0 promille bo‘lgan) tashkil etdi.

**Nikoh tuzish va nikohdan ajralishlar koeffitsiyentlari**

*(2023-yil yanvar-dekabr, 1000 aholiga, promille)*





## Nikoh va ajrimlar soni

(yanvar-dekabr)

(birlikda)

	Nikohlar		Ajrimlar	
	2022- yil	2023 -yil	2022 -yil	2023- yil
<b>Toshkent shahar</b>	<b>22503</b>	<b>22352</b>	<b>5934</b>	<b>6169</b>
<i>tumanlar:</i>				
Uchtepa	2423	2412	582	607
Bektemir	509	480	145	165
Yunusobod	3193	3145	761	877
Mirzo Ulug‘bek	2023	2098	651	714
Mirobod	1022	988	280	344
Shayxontohur	2557	2423	636	560
Olmazor	2730	2688	742	671
Sergeli	1278	1576	499	462
Yakkasaroy	1561	1140	273	260
Yashnobod	1953	2067	615	687
Yangihayot	958	955	168	193
Chilonzor	2296	2380	582	629




**Tumanlar kesimida 2023- yilning yanvar-dekabr oylarida  
nikohlar soni bo'yicha taqsimlanishi, birlikda**



**Nikoh.** Dastlabki ma'lumotlarga ko'ra, tumanlar bo'yicha eng yuqori nikoh tuzish darajasi Yunusobod tumanida 3145 ta, Olmazor tumanida 2688 ta, Shayxontohur tumanida 2423 ta, Uchtepa tumaniga 2412 ta to'g'ri keladi.

Tumanlar bo'yicha eng kam nikoh tuzish darajasi Bektemir 480 ta, Yangihayot 955 ta va Mirobod 988 ta tumanlariga to'g'ri keladi.

**Tumanlar kesimida 2023- yilning yanvar-dekabr oylarida nikohdan  
ajralishlar soni bo'yicha taqsimlanishi, birlikda**






**Ajrim.** Dastlabki ma'lumotlarga ko'ra, tumanlar bo'yicha eng yuqori nikohdan ajralishlar darajasi Yunusobod 877 ta, Mirzo Ulug'bek 714 ta, Yashnobod 687 ta, va Olmazor 671 ta tumanlariga to'g'ri keladi.

Tumanlar bo'yicha eng kam nikohdan ajralishlar darajasi Bektemir 165 ta, Yangihayot 193 ta va Yakkasaroy 260 ta ta tumanlariga to'g'ri keladi.

**Nikohdan ajrashganlarning farzandlar soni bo'yicha taqsimlanishi  
2023- yil yanvar- dekabr oylarida**



2023-yil yanvar-dekabr oylarida Toshkent shahrida jami nikohdan ajrashganlarning 47,0 foizi farzandsiz, 28,4 foizi bitta farzand bilan va 24,6 foizi ikki va undan ortiq farzand bilan ajrashganlar hissasiga to'g'ri kelgan.

**Migratsiya.** Dastlabki ma'lumotlarga ko'ra, 2023-yilning yanvar-dekabr oylarida Toshkent shahri bo'yicha ko'chib kelganlar soni 94,5 ming kishini, ko'chib ketganlar soni esa 69,5 ming kishini tashkil etdi.

Shunga muvofiq, migratsiya saldosi plyus 25,0 ming kishini tashkil etib, 2022-yilning mos davrida 36,4 ming kishini tashkil etgan.

Migratsiya saldosi yuqori darajasi Yangihayot (8376 kishi) tumanida qayd etildi.




**Aholi migratsiyasi**  
(yanvar-dekabr)

(kishi)

	Kelish		Ketish		Migratsiya saldosи	
	2022-y.	2023-y.	2022-y.	2023- y.	2022-y.	2023- y.
<b>Toshkent shahri</b>	<b>99064</b>	<b>94542</b>	<b>62665</b>	<b>69541</b>	<b>36399</b>	<b>25001</b>
<i>tumanlar:</i>						
Uchtemir	7311	7249	6878	7766	433	-517
Bektemir	4351	3301	1177	1408	3174	1893
Yunusobod	7703	8372	6705	7180	998	1192
Mirzo Ulug‘bek	11218	9618	6046	6600	5172	3018
Mirobod	5070	5227	3995	4631	1075	596
Shayxontohur	5491	5515	6519	6797	-1028	-1282
Olmazor	6997	7316	6026	6576	971	740
Sergeli	16425	10183	5106	5712	11319	4471
Yakkasaroy	3816	3839	3402	3780	414	59
Yashnobod	12242	13585	5891	6397	6351	7188
Yangihayot	10098	12292	3194	3916	6904	8376
Chilonzor	8342	8045	7726	8778	616	-733

**Aholining tabiiy va mexanik harakatlari to‘g‘risida ma’lumot**  
(2023- yil yanvar- dekabr, 1000 aholiga, promille)





## STATISTIK KO'RSATKICHLARGA IZOHLAR

**Doimiy aholi** – ro‘yxatdan o‘tkazilayotgan vaqtida muayyan aholi punkti yoki hududda doimiy istiqomat qilayotgan aholidan iborat bo‘lib, bunga ushbu hududda doimiy ro‘yxatda turib, lekin vaqtincha yashamaydigan aholi ham kiritiladi.

**Tug‘ilish** – tug‘ilish jarayonlarining sodir bo‘lishi va boshqa xususiyatlarini tavsiflovchi ko‘rsatkich.

**1000 aholiga nisbatan tug‘ilish koeffitsiyenti** – hisobot yilida jami tug‘ilganlar (tirik) sonini hisobot davridagi doimiy aholining o‘rtacha soniga bo‘lib, 1000 ga ko‘paytirish orqali hisoblanadi.

**1000 aholiga nisbatan o‘lim koeffitsiyenti** – hisobot yilida jami o‘lganlar sonini hisobot yilidagi doimiy aholining o‘rtacha soniga bo‘lib, 1000 ga ko‘paytirish orqali hisoblanadi.

**O‘lim sabablari** – o‘limga yoki uning sodir bo‘lishiga ta’sir etgan kasalikklar, patologik holatlar va jarohatlar, shuningdek, o‘lim bilan yakun topgan jarohatga sabab bo‘lgan baxtsiz hodisa va zo‘ravonlik holatlari.

**Nikoh** – erkak va ayol o‘rtasidagi, ularning bir-birlariga va farzandlariga nisbatan huquq va majburiyatlarini belgilab beradigan o‘zaro munosabatlari shakli. Er va xotin o‘rtasidagi yuridik munosabatlarni fuqarolik holati dalolatnomalarini yozish (FHDYO) organlarida nikohlarini ro‘yxatdan o‘tkazish natijasida o‘rnataladi.

**1000 aholiga nisbatan nikohlar koeffitsiyenti** – hisobot yilida tuzilgan nikohlar sonini doimiy aholining o‘rtacha soniga bo‘lib, 1000 ga ko‘paytirish orqali hisoblanadi.

**Nikohdan ajralish (nikohni bekor qilish)** – er-xotinlarning hayoti davomida, tomonlar uchun qayta nikoh huquqini beruvchi, nikohlarning to‘liq yuridik to‘xtatilishi, nikoh FHDYO yoki sud organlarida ajralishni ro‘yxatdan o‘tkazilganidan so‘ng bekor qilingan hisoblanadi.

**1000 aholiga nisbatan nikohdan ajralish koeffitsiyenti** – hisobot yilida nikohdan ajralishlar sonini doimiy aholining o‘rtacha soniga bo‘lib, 1000ga ko‘paytirish orqali hisoblanadi.